



## MUSIQA O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN USLUBLAR VA VOSITALAR

**Muallif:** Ismatova Oyniso Hikmat qizi <sup>1</sup>, Jalilov Shokir Isomiddinovich <sup>2</sup>

**Affilyatsiya:** NavDU “Musiqqa ta’limi”yo’nalishi<sup>3</sup> – kurs talabasi <sup>1</sup>, NavDU “Musiqqa ta’limi” kafedrasida dotsenti <sup>2</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14437097>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada insonning hissiy kechinmalari yordamida inson qalbida musiqani uyg'otish hamda yosh avlodga musiqqa san'atining ma'no va mazmunini to'laqonlik yetkazishning uslub va vositalari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** musiqqa, san'at, ritmik harakatlar, hissiyot kechinmalari, kuy, qo'shiq, musiqiy - estetik tarbiya.

Musiqqa shunday san'at turi, u insonlarning hissi - kechinmalari, emotsional hissiyotlari orqali birlashtiriladi. Musiqqa inson his-tuyg'ularini, orzu - umidlarini, xohish-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg'ulariga faol ta'sir etadi. Darhaqiqat, bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman kechinmalar uyg'otishining o'zini bir mo'jizasi deb, atash mumkin. Musiqqa san'ati inson hayotining ilk yillaridan uning hamrohiga aylanib, umumiy madaniy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Musiqqa inson umrining doimiy yo'ldoshi. Olim Stendalning aytishiga ko'ra, musiqqa – san'at turlari ichida insonning yuragiga chuqur kirib, uning ichki kechinmalarini aks ettirishga qodirdir.

Musiqqa ham voqea-hodisalarni ifodali aks ettiradi. Ammo, u me'morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o'lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqqa ko'rish orqali emas, balki eshitish orqali idrok etiladi. Musiqqa mavzui o'z xususiyatiga ega bo'lib, inson va voqelikdagi barcha hissiy tomonlarni qamrab olgan ichki ma'naviy dunyosini, uning tuyg'u va kayfiyatini ifodalaydi. Demak, bolalarning musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqqa san'atning o'rni beqiyosdir. Musiqqa kishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatar ekan: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta'sir qilib, unda har xil hislarni uyg'otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Kishilarda asarda aks etgan ma'naviy muammolarga nisbatan munosabat uyg'otadi. Bunday ta'sir g'oyat murakkab va kuchlidir.

Musiqqa faoliyatida samarali uslublardan bolalar bog'chasi uchun eng muhimi hisoblangan musiqiy-ritmik faoliyatdir. Bolalar bog'chasida bu faoliyat ertalabki badantarbiya mashqlari sifatida amalga oshiriladi. Musiqqa mashg'ulotlarda chapak va

bolalar cholg'u asboblari ritmik jo'r bo'lish, musiqaning xarakter va obrazini chuqurroq his etishda, ularga emotsional tuyg'ular hosil qilish, ayniqsa, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa mashg'ulotlarida bolalar cholg'u asboblariidan foydalanish ijobiy natijalar berish bilan birga bolalarning mashg'ulotga intiluvchanligi, qiziquvchanligi hamda musiqiy o'quvini (xotirasi, ritmini his qilish tuyg'usini, nutqini) o'stiradi.

Musiqiy-ritmik harakatlar o'quvchilarning badiiy tajribasiga aylanishi, badiiy rivojlanishini boyitishi uchun eng avvalo, harakat malakalari haqida tasavvurga ega bo'lish lozim. O'quvchilar xonada musiqa ostida qadam tashlash, yengil yurish, har tomonga tarqalish kabi boshlang'ich malakalarini egallaydilar. Musiqiy signal – belgilarga (harakatni boshlash, o'zgartirish va hokaza) ritmik harakatlanishni o'rganadilar. Masalan, barabanning jaranglashi o'rinlardan turib, saflanishga signal beradi. D.Nazarovning “ Yurish marshi” kuyida insonning vatanparvarlik hissiy – tuyg'ulari uyg'onib, kuy jo'rligi orqali shaxdam qadamlar bilan olg'a yurishga intiladi.

Maktabga tayyorlov guruhlarida musiqiy – estetik masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. 6-7 yoshli bolalarda kuylashga ehtiyoj kuchayadi. Maktabga bolalarni puxta egallagan bilim va malakalar bilan yuboriladi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalaridan talab etiladigan bilim va malakalar:

qo'shiqni ifodali ijro etishi: jarangdor, kuychan, yengil ovoz bilan kuylash, ko'krak va yelkani ko'tarmasdan nafas olish, artikulyatsiya malakalari, so'zlarni aniq va ravshan burro talaffuz qilish;

qo'shiqni birga boshlab birga tugatishi (tempni tezlashtirmasdan yoki sekinlashtirmasdan), ritm va tempni aniq his qilishi, kuyni intonatsiya bilan kuylash, qo'shiqni asbob jo'rligida va jo'rsiz ijro eta olish, kuyning yuqoriga va pastga harakatlanishi, uzun va qisqa tovushlarni aniqlay olishi, nota nomlarini bilishi kerak;

jamo va yakka kuylay olishi. Bunda qomatini tik tutib, o'zining qo'shiqchilik qobiliyatini va malakalarini ko'rsata olishi;

qo'shiqchilik diapozonini rivojlantirish bosqichlardan iboratdir

Metodik usullar:

qo'shiq kuylashdan oldin ovoz sozlash;

qo'shiqni yuqori va past tonaliklarda transpozitsiya qilish;

kuyni eshitish qobiliyatini rivojlanish;

kuyni qo'l harakatlari yordamida ko'rsatish (drijorlik elementlari)

Musiqa madaniyati mashg'ulotlari pedagogikaning didaktik nazariyasi va prinsiplari asosida tuziladi. Mazkur prinsiplar musiqa rahbari hamda o'quvchilar tomonidan bajariladigan barcha ta'lim asoslari – mashg'ulotlar mazmunining metodlari va mashg'ulotlarning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi. Mazkur prinsiplar asosan, o'quv materiallarni qo'llash, musiqa mashg'ulotlari mazmuni va rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi. Mashg'ulotlarda umumdidaktik prinsiplari bir – biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, musiqa mashg'ulotlarini davlat ta'lim standartlariga muvofiq musiqa faoliyat izchilligini ta'minlaydi. Bu prinsiplarga tayangan holda o'quvchilarni musiqa san'atiga havas uyg'otish, musiqa tinglash va amaliy vositalar orqali qiziqtirish hamda musiqa ehtiyojini kuchaytirish bilan birgalikda badiiy taassurotlarni to'plab borishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, musiqa olamini shaxs sifatida shakllanayotgan bolalarni qalbida milliy ruhni kamol toptirish, musiqiy – estetik tarbiyasi hamda ma’naviy va axloqiy madaniyatni, musiqiy didni shakllantirish, musiqiy tasavvurlarni boyitish bilan birgalikda insonni vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik tuyg’ularini kamol toptirishdan iborat.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**

Oripova R. O’smirlarda milliy g’oya tushunchalarni shakllantirish (maktabbdan tashqari muassasalaridagi musiqiy to’garaklar misolida) T...,2009

Soipova D. Musiqiy – nazariy bilimlarni o’zlashtirish jarayonida o’quvchi shaxsini shakllantirish T...,2006

Soipova D. Musiqiy – nazariy bilimlarni o’zlashtirish jarayonini takomillashtirish T...,2005

Soipova D. Musiqa o’qitish nazariyasi va metodikasi T...,2009

